

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DUSTMURODOV ORIFJON ISMATILLOYEVICH

**IQTISODIYOTDA TUB TARKIBIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA
HUDUDiy TURIZM RIVOJLANISHINING IQTISODIY
SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation for the degree of Doctor
of Philosophy (PhD) in Economic Sciences**

Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar sharoitida hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari..... 3

Дустмуродов Орифжон Исмаиллаевич

Факторы повышения экономической эффективности развития регионального туризма в условиях коренных структурных изменений в экономике..... 27

Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich

Factors for increasing the economic efficiency of regional tourism development in the context of fundamental structural changes in the economy..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DUSTMURODOV ORIFJON ISMATILLOYEVICH

**IQTISODIYOTDA TUB TARKIBIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA
HUDUDiy TURIZM RIVOJLANISHINING IQTISODIY
SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2022.2.PhD/Iqt2133 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolmo'minov Shayzoq Raxmatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100084, Toshkent shahri, "Amir Temur" shohko'chasi, 107 B-uy. Telefon: (71)205-06-00, (71)200-00-88, info@motach.uz, turizmdevon@exat.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, "Islom Karimov" ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-28-75, faks: (+99871) 239-28-75. E-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida turizm muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillardan biriga aylanib, mazkur sohadan olinadigan umumiy daromad hajmi tobora oshib bormoqda. Turizm faqat sayr-sayohatdan iborat bo'lmagan, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining bandligini ta'minlash, shu bilan birga, turdosh tarmoqlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda jahonda kuzatilayotgan siyosiy voqealar, iqtisodiy o'zgarishlar va tabiiy ofatlar tufayli barqarorlikni ta'minlash qiyin kechmoqda. Shu bois iqtisodiy o'zgarishlar davrida turizm sohasini iqtisodiyotning asosiy sektoriga aylantirish maqsadida mavjud imkoniyatlardan maqsadli foydalanib, faoliyatni yanada rivojlantirish hamda turizm sohasini qo'llab-quvvatlash dunyo hamjamiyatining doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib qaralsa, Butunjahon Turizm Tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yilda turizm jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 10,4 %i, har 1/10 ish o'rni, jahon eksportining 7 %i, xizmatlar eksportining 30 %i to'g'ri kelgan. Xalqaro turizm harakatlarida 2024-yilda 1,462 mln.dan ortiq turistlar qatnashgan bo'lib, ularga ko'rsatilgan xizmatlardan 1,480 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad olingan"¹. Bu esa hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish omillarini tadqiq etishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida turizm sohasining kengayib borishi tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylangan. Turizm sayohatlarini muammosiz va ko'ngildagidek amalga oshirish uchun ekskursiya, joylashtirish, ovqatlantirish, transport tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, mamlakatning turizm resurslariga boy bo'lgan hududlarida infratuzilmani tashkil qilish orqali uning samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, jahonda turizm sohasida yuzaga kelayotgan dolzarb masalalarni qisqa muddatlarda bartaraf qilish borasidagi chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilib, ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlar tobora kuchaytirilmoqda.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'jallangan taraqqiyot strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlaridan biri "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturida mahalliy sayyohlar sonini qisqa muddatlarda 12 million nafarga yetkazish hamda respublikamizga tashrif buyurayotgan xorijlik turustlar sonini 9 million nafarga oshirish uchun infratuzilmani takomillashtirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, 2024-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizga 10,2 mln.dan ortiq xorijlik turistlar tashrif buyurgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 26,6 %ga o'sishga erishilgan. 2024-yilda turizm xizmatlari eksporti hajmi 1.4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan². Bu natijalarni yanada rivojlantirish uchun mamlakatimiz hududlarida

¹ www. UN Tourism org.

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari nomli statistik byulleten ma'lumotlari.

turizmga innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash orqali ichki turizmga mahalliy aholini jalb etish, xorijlik turistlar oqimini keskin ko'paytirish orqali turizm xizmatlari eksportini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish orqali mahalliy aholining bandligini ta'minlash va ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hududiy turizmni rivojlantirish, samaradorligining nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda xorijlik olimlardan F.Kotler, M.Fridman, G.Geyl, A.Bxatiya, X.Stainton, S.Chand Xasa, B.Oli, K.Gust, X.Gurta, R.Malak va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan³. Yuqorida nomlari keltirilgan xorijlik olimlarning tadqiqotlarida hududlarda turizm xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari, uni rivojlantirish bosqichlari va xizmatlarni tashkil etishga ta'sir qiluvchi omillarga alohida e'tibor qaratilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan hududiy turizmni rivojlantirish bo'yicha M.B.Birjakov, N.I.Kabushkin, A.S.Kuskov, V.A.Kvartalnov, M.A.Morozov va boshqalar izlanishlar olib borganlar⁴. O'zbekistonlik olimlardan M.Q.Pardayev, A.A.Eshtayev, A.M.Abduvohidov, O.M.Hamidov, Sh.R.Xolmo'minov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, E.V.Golisheva va boshqalarning tadqiqotlari hamda ilmiy asarlarida turizmga oid muhim, xususan, ushbu sohani tartibga solish masalalari yoritib berilgan⁵.

³ Котлер Ф., Боуен Дж., Мэйкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство и туризм. Учебник для вузов. / Пер. с англ. под ред. Friedman M. Theory of the consumption function. – Princeton university press, 2018. – 258 p.; Gillian Geyl., ВТЕС 2005, [Arjun Kumar Bhatia](#), International Tourism Management 2006. – 539 p. Dr. Hayley Stainton, Children in Sustainable and Responsible Tourism 2022. – 17 p. Smriti Chand., Event Marketing: Meaning, Features and Importance of Event Marketing. – Your Article Library, Hasa, Difference Between Domestic and International Tourism. 2016, Nimesh Babu Oli., What is domestic tourism. 2021, Cvent Guest., How to Attract Domestic Tourists: 6 Strategies to Know. 2021, Harshita Gupta, Domestic tourism. – International Travel Consultant at ShowMe Holidays. 2021, Rosso Malaka. – Domestic Tourism Definition and Significance. 2021.

⁴ Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: Издательский дом Герда, 2004; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. – Новое знание, 2001. – 432 с.; Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма. Учебник. – М.: КНОРУС, 2015. – 530 с.; Морозов М.А., Морозова Н.С. Экономика туризма. 2019. – 291 с.

⁵ Пардаев М.К. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: "Иқтисодиёт-молия" нашриёти, 2008. – 243 б.; Эштаев А.А.

Shuningdek, uchinchi renessans va iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar sharoitida hududiy turizm rivojlanishining holati bilan bog'liq ba'zi masalalar, zamonaviy muammolar yangi tadqiqotlarni talab etadi. Hududiy turizmning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini baholash, uni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va vositalarining ilmiy-nazariy, uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish kerak. Bugungi kunda hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yetarlicha o'rganilmaganligi sababli hududiy turizmni tashkil qilish bilan bog'liq omillarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari hamda korxonalar rivojlanishining ilmiy-metodologik asosini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar sharoitida hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar sharoitida hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurati va obyektiv shart-sharoitlarini aniqlash;

hududiy turizmni rivojlantirish iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari va omillarini aniqlash;

hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni respublikamizda tatbiq etish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

Samarqand viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga turizm tashkilotlari faoliyatining ta'sirini aniqlash;

hududiy turizmni rivojlantirish iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy omillarini kompleks iqtisodiy va ekonometrik tahlil qilish;

hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yollanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash;

Ўзбекистоннинг туризм салоҳияти ва уни ривожлантириш истиқболлари. Монография. – Самарқанд: “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университети нашриёти, 2023. 19-б.; Абдувоҳидов А.М. ва бошқалар. Туризм ривожланишини прогнозлаш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2019. 38-б.; Ҳамидов О.Ҳ. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. докт. (DSc) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2017. 7-б. Инновацион иқтисодиётнинг шаклланиши шaroитида туризм ривожланиши иқтисодий самарадорлигини оширишнинг объектив зарурати ва аҳамияти. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2022-yil, 4-sop. – 318 бет; Алиева М.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шaroитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон мисолида). 2019. 204-б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида). Докторлик диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2017. – 95 б.; Гольщева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях. Дис... канд.экон.наук. – Т.: ТГЭУ, 2011. – 154 с.

hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda klaster tizimini joriy qilish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

hududiy turizmni rivojlantirish iqtisodiy samaradorligini oshirishning strategik konsepsiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Samarqand viloyati turizm bozorida faoliyat yuritayotgan turizm subyektlarining iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti hududiy turizmning rivojlanish samaradorligini oshirishdagi iqtisodiy-tashkiliy munosabatlar hisoblanadi.

T

a

d **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

q uslubiy yondashuvga ko‘ra iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida “hududiy turizm” tushunchasining iqtisodiy mazmuni soha rivojlanishida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillari, amalga oshirish tamoyillari va o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishlarini asoslash orqali takomillashtirilgan;

t hududiy turizmning statistik va buxgalteriya hisobotlari asosida aniqlash imkoni bo‘lmagan faoliyatini baholash ish beruvchilar va band bo‘lgan yollanma xodimlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga aniq sotsiologik baho berish orqali takomillashtirilgan;

g xo‘jalik yuritishning zamonaviy usuli bo‘lgan klaster tizimini hududiy turizmda qo‘llash mexanizmlarini joriy qilish asosida “Samarqand viloyati turizm klasteri” tuzilmasini tashkil etish taklifi asoslangan;

s Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy va ichki turistlar, mehmonxona va hostellar, tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizm vositalari, turizm infratuzilmasi bbyektlari sonining hududiy turizm rivojlanishiga ta‘sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida hududiy turizm xizmatlari eksportining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

r **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

i hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi omillarni o‘rganishda hududning imkoniyatlari, mavjud turizm resurslaridan maqsadli foydalanish orqali erishilgan ijobiy natijalarni kuzatish bilan bir qatorda tizimdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish bo‘yicha hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini baholash bosqichlari ishlab chiqilgan;

d statistik va buxgalteriya hisobotlari asosida aniqlash imkoniyati bo‘lmagan hududiy turizm faoliyatida band bo‘lgan ish beruvchilar va yollanma xodimlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga sotsiologik baho berilgan;

q Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan turizm tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ish beruvchilar va yollangan xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda turizm klasterlari faoliyatini yanada takomillashtirish, turizm klasterlari doirasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish, hududlarga turistlar oqimini ko‘paytirish maqsadida mazkur hududlardagi turizm tashkilotlarini turizm

a

y

o

n

klasterlariga tizimlashtirish natijasida hududlardagi turizm tashkilotlarining iqtisodiy imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchlilik tahlili jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Butunjahon Turizm Tashkiloti (UN Tourism), O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlaridan keng foydalanilganlik, tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, olingan xulosalar, takliflar va ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning mutasaddi vazirlik va tashkilotlar tomonidan ma'qullanganligi tadqiqotning ishonchlilik darajasini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslar respublikamizda hududiy turizmni rivojlantirishda raqobatbardosh xizmatlarni ishlab chiqish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali hududiy turizm mahsulotlarining sifatini oshirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bu natijalar orqali respublikamiz hududlarida turizm faoliyatini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada chuqurlashtirish, turizm xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari va rivojlanishning strategik dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalanish mumkinligi uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularga asosan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan respublikamiz hududlarida turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, turizm xizmatlarini amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatidagi o'zaro munosabatlarni ta'minlashga ta'sir etuvchi bir qator omillarni aniqlash, shuningdek, turizm sohasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarida "Mintaqaviy turizm resurslari", "Turizm resurslari-I-II", "Turizmدا transport xizmatlari", "Gastronomik turizm" fanlaridan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sillabuslar, masalalar to'plami tayyorlashda uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar sharoitida hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar sharoitida "hududiy turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmunini soha rivojlanishida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillari, amalga oshirish tamoyillari va o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlarini asoslash orqali takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Turizmدا innovatsiya" nomli o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 14-iyuldagi 228-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda "hududiy turizm" tushunchasining soha rivojlanishida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning takomillashtirilgan mazmuni bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

hududiy turizmning statistik va buxgalteriya hisobotlari asosida aniqlash imkoni bo'lmagan faoliyatlarini baholashni ish beruvchilar va band bo'lgan yollanma xodimlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga aniq sotsiologik baho berish orqali takomillashtirish taklifidan hududiy turizmda band bo'lgan aholining daromadlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 3-martdagi 03-10-17-1888-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga solishga xizmat qiladi;

xo'jalik yuritishning zamonaviy usuli bo'lgan klaster tizimini hududiy turizmda qo'llash mexanizmlarini joriy etish asosida "Samarqand viloyati turizm klasteri" tuzilmasini tashkil etish taklifidan hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish, rekreatsion hududlarga turistlar oqimini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 3-martdagi 03-10-17-1888-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishda klaster tizimlaridan maqsadli foydalanish orqali klaster subyektlarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keluvchi va tizimning hamma elementlarini birlashtirish jarayoniga xizmat qiladi;

Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy va ichki turistlar, mehmonxona va xostellar, tibbiyot va sog'lomlashtirish turizm vositalari, turizm infratuzilmasi obyektlari sonining hududiy turizmni rivojlantirishga ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida hududiy turizm xizmatlari eksportining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 3-martdagi 03-10-17-1888-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning prognoz ko'rsatkichlari asosida Samarqand viloyatidagi turistlarga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda serdaromad ish o'rinlari yaratilishi, turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchilarning ulushi 2,4 barobarga oshirilishiga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta (shu jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola nashr qilingan. Ularning 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 159 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari izohlab berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurati va obyektiv shart-sharoitlari, hududiy turizm rivojlanishida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy tamoyillari va omillari, hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning o‘ziga xos tendensiyalari o‘rganilgan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar izchilik bilan amalga oshirilmoqda, turizm sohasini iqtisodiyotning drayveriga aylantirish, turizm xizmatlaridan tushayotgan daromadlarni oshirish, turizm tarmoqlarida serdaromad ish o‘rinlarini ko‘paytirish singari natijalarga erishish va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yanada ko‘tarish innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi muhim vazifalardan biriga aylangan. Amalga oshirilayotgan islohotlar negizida turizm xizmatlari bozorida iste’molchilar uchun mamlakatimizda yangi manzillar tashkil etilmoqda. Buning natijasida respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlar soni barqaror ravishda ortib bormoqda (1-rasm).




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni (mln. kishi), 2017-2024-yillar kesimida⁶

Xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, hududiy turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun bir qator o‘zaro bog‘liq shart-sharoitlarni

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari nomli statistik byulleten ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

amalga oshirish zarur. Buni amalga oshirish uchun tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olish talab etiladi (2-rasm).



2-rasm. Hududiy turizmni rivojlantirishning asosiy shart-sharoitlari⁷


Hududiy turizm xizmatlari ma'muriy va iqtisodiy usullar orqali tartibga solib boriladi. Ma'muriy tartibga solish usullari turizm va mehmonxona sohasi faoliyatini tartibga solish (me'yoriy-huquqiy hujjatlar, normalar, faoliyatni litsenziyalash, monopoliyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirish)ni ko'zda tutadi. Iqtisodiy tartibga solish usullari soha tashkilotlari va manfaatdor tomonlar faoliyatini turizm bozorida faoliyat yuritishga rag'batlantirish (soliq va soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, dotatsiya va subsidiyalar, loyihaviy moliyalashtirish, davlat buyurtmalari) orqali amalga oshiriladi. Hududlardagi siyosiy beqarorlik va ijtimoiy xavfsizlikning pastligi mamlakat va uning hududlarida dunyo ahamiyatiga ega, diqqatga sazovor joylar bo'lishiga qaramay, turistlar oqimining kamayishiga olib keladi. Mamlakat va uning hududlaridagi o'zaro naf keltiruvchi tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlar raqobatni rivojlantirish va taklif etilayotgan turizm xizmatlarining diversifikatsiyalashuvini ta'minlaydi (3-rasm).

Hududiy turizm faoliyatidagi iqtisodiy muvozanat uzoq muddatli istiqbolda turizm sohasini chuqur moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Turizm resurslari va uning moddiy-texnik bazasini tahlil qilish turizm taklifining mavjud imkoniyati, jumladan, turizm mahsulotining sifatiga oid masalalar yechimini taqozo etadi. Hududiy turizm iqtisodiyotida muhim muammolardan biri sohada ishchi kuchidan foydalanish bo'lib, turizm faoliyatining iqtisodiy samaradorligi uning turli jabhalarida ifodalanadi. Hududiy turizm faoliyati moliyaviy muammolarni ham o'z ichiga oladi, jumladan: turizm tashkilotining moliyaviy resurslari, kredit mablag'laridan foydalanish imkoniyati, bank va bank tizimi bilan o'zaro aloqasi, budjet bo'g'inlari va soliqqa tortish tizimi.

Mamlakatimizning bugungi iqtisodiy sharoitida turizmda moliyalashtirish va soliqqa tortish masalalari muhim ahamiyatiga ega bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlarga

⁷ Muallif tomonidan tayyorlangan.


ko‘ra, hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda faqat turizm sohasini rivojlantirish emas, balki infratuzilmaning turdosh sohalari imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda rivojlantirish lozim. Shu maqsadda turizmni aynan hududlarda rivojlantirishda nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, shu bilan birga aloqador bo‘lgan barcha vazirlik va idoralarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.



3-rasm. Hududiy turizmni rivojlantirishda turizm xizmatlari bozorining shakllanish shart-sharoitlari⁸

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Samarqand viloyatida turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy omillari tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, unda Samarqand viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga turizm tashkilotlari faoliyatining ta’siri, hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy omillarining iqtisodiy va ekonometrik tahlili, hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yollanuvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash bo‘yicha tahlillar olib borilgan. Izlanishlar ko‘rsatishicha, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishga iqtisodiyotning turdosh tarmoqlari orqali erishiladi va turizm xizmatlari rivojlantirilganda, iqtisodiyotning bir qancha yo‘nalishlarida samarali ko‘rsatkichlar kuzatiladi (4-rasm).


⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan.



4-rasm. Hududiy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga ta'siri⁹

Tadqiqot obyekti bo'lgan Samarqand viloyati mamlakatimizning yuqori iqtisodiy salohiyat, boy tarix va madaniyatga ega hududlaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda viloyatda yangi korxonalar, kichik biznes subyektlari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari tashkil etilmoqda. Shuningdek, turizm, to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. 2024-yil davomida Samarqand viloyatiga 114 ta davlatdan 2 mln.dan ortiq xorijiy turistlar tashrif buyurgan. Shuningdek, mazkur davrda viloyatda 4,5 mln.dan ortiq ichki turistlarga xizmat ko'rsatilgan.

Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi omillarni o'rganishda hududning imkoniyatlari, mavjud turizm resurslaridan maqsadli foydalanish orqali erishilgan ijobiy natijalarni kuzatish bilan bir qatorda tizimdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish muhim. Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi omillar, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar va asosiy ko'rsatkichlarni ekonometrik tahlil qilish orqali baholash muhim hisoblanadi. Turizm xizmatlari bozorida iqtisodiy samaradorlikni oshirish samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari asosiy ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlili iqtisodiy-matematik usullar asosida ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning o'zaro bog'liqlik kuchini tadqiq etish, ularning amal qilish qonuniyatlarini aniqlash va tajribalar orqali kuzatish imkoniyatini yaratadi.



5-rasm. Hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini baholash bosqichlari¹⁰

Tadqiqot davomida Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan turizm tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha turizm tashkiloti xodimlari bilan sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan turizm tashkiloti xodimlari bilan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomada 500 nafar kishi ishtirok etdi. Respondentlarga "Siz turizm obyektlarining qaysi sohasida faoliyat yuritasiz?" savoliga berilgan javoblar tahliliga ko'ra, ularning 21 %i turizm mahsulotlarini sotish (turagent), 19,6 %i turistlarni mehmonxonalarga joylashtirish, 18 %i turizm mahsulotlarini ishlab chiqish (turoperator), 8,4 %i menejer, 8 %i ekskursiya xizmatlarida, 7,2 %i marketolog, 6,4 %i turizm tashkilotida ish yurituvchi, 4,6 %i ovqatlantirish korxonalarida, 3,8 %i transport xizmatlarida, 3 %i boshqa xizmat turlarida faoliyat yuritadi (1-jadval).

Respondentlarning javoblari tahlilidan ko'rish mumkinki, xodimlarning asosiy qismi ish yurituvchi, turoperator va turagent sohalarida faoliyat yuritmoqda. Turizm tarmog'ining boshqa sohalaridan menejer, turoperator va turagent sohalarida daromadli kasblar ekanligini kuzatish mumkin. Muallifning fikricha, hududlarda turizm sohasi xizmatlarini rivojlantirishda xodimlarning taqsimoti balansini nazorat qilib borish hamda turizm bozorida mavsumiylik kuzatilishi sababli xodimlarning turli kasblarga moslashuvchanligini oshirish kerak.

¹⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

**Respondentlarga “Siz turizm obyektlarining qaysi sohasida faoliyat yuritasiz?”
savoliga berilgan javoblar¹¹**

Respondentlarning javobi	Erkaklar		Ayollar		Jami:	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
Turizm tashkilotida ish yurituvchi	19	5,5	13	8,3	32	6,4
Turistlarni mehmonxonalarga joylashtirish	68	19,8	30	19,1	98	19,6
Turizm mahsulotlarini ishlab chiqish (turoperator)	64	18,7	26	16,6	90	18
Turizm mahsulotlarini sotish (turagent)	69	20,1	36	22,9	105	21
Menejer	28	8,2	14	8,9	42	8,4
Marketolog	23	6,7	13	8,3	36	7,2
Ovqatlantirish korxonalarida	15	4,4	8	5,1	23	4,6
Transport xizmatlarida	16	4,7	3	1,9	19	3,8
Ekskursiya xizmatlarida	33	9,6	7	4,5	40	8
Boshqa xizmat turlarida bo'lsa, yozing	8	2,3	7	4,5	15	3
Jami:	343	100,0	157	100,0	500	100,0

Respondentlarga “Siz faoliyat yuritayotgan turizm tashkilotida mijozlarni ko‘proq qaysi yo‘nalishlarda qabul qilasiz?” savoliga berilgan javoblar tahlilidan 18,4 %i ziyorat turizmi, 17 %i tarixiy-madaniy turizm, 16,6 %i sog‘lomlashtirish turizmi, 15,6 %i ekoturizm, 11,6 %i gastronomik turizm, 8 %i agroturizm, 6,6 %i biznes turizmi, 3,4 %i ilmiy turizm, 2,8 %i boshqa turizm yo‘nalishlari turistlarni qabul qilganligi aniqlandi.

Tahlillardan ko‘rish mumkinki, respondentlar asosan ziyorat turizmi, tarixiy-madaniy turizm, sog‘lomlashtirish turizmi va ekoturizm yo‘nalishlarida turistlarni qabul qilgan. Aytish kerakki, ekoturizm yo‘nalishi bo‘yicha, asosan, mahalliy turistlar qabul qilingan. Shuningdek, mamlakatimizdagi boshqa turizm yo‘nalishlarida mijozlarning qabul qilinishi nisbatan kam. Ma’lumki, turist hududda qancha ko‘p qolsa, mahsulotlar eksporti hajmi shuncha kengayadi. Shuningdek, turistlarni boshqa hududlardagi jozibador turizm mahsulotlariga yo‘naltirish va boshqa hududlardagi turistlarni qabul qilish orqali zamonaviy marketing metodlarini rivojlantirish kerak.

Turizm tashkilotining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun respondent xodimlarga quyidagi sharoitlar: 12 %i ish haqini o‘z vaqtida to‘lash, 11,4 %i moddiy yordam berish, 10,4 %i mahalliy va xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etishni ta‘minlash, 9,6 %i resurslar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash, 9 %i mehnat sharoitini yaxshilash, 9 %i ma’naviy dam olishni tashkil etish, 7,4 %i bepul malakasini oshirish, 7 %i yuqori unumli texnika, 5,2 %i raqamli texnologiyalar asosida xo‘jalik yuritishni tushuntirish, 4,2 %i mutaxassisligi bo‘yicha ish bilan ta‘minlash, 3,6 %i korxonani rivojlantiruvchi yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, 3,4 %i og‘ir qo‘l mehnatini kamaytirish, 2,6 %i zarurat bo‘lganda, boshqa lavozimga o‘tkazish, texnologiyalar bilan ta‘minlash, 2,6 %i qonun

¹¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

hujjatlarini o'rgatish, 2,6 %i boshqa sharoitlar yaratilishi kerak ekanligini ta'kidlagan (2-jadval).

2-jadval

Respondentlarga “Sizningcha, turizm tashkilotining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun xodimlarga quyidagi sharoitlardan qaysi birini ko‘proq yaratish kerak?” savoliga berilgan javoblar¹²

Respondentlarning javobi	Erkaklar		Ayollar		Jami:	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
Ish haqini o‘z vaqtida to‘lash	47	13,7	13	8,3	60	12
Mutaxassisligi bo‘yicha ish bilan ta‘minlash	13	3,8	8	5,1	21	4,2
Mehnat sharoitini yaxshilash	30	8,7	15	9,6	45	9
Zarurat bo‘lganda, boshqa lavozimga o‘tkazish	8	2,3	5	3,2	13	2,6
Og‘ir qo‘l mehnatini kamaytirish	10	2,9	7	4,5	17	3,4
Ma‘naviy dam olishni tashkil etish	29	8,5	16	10,2	45	9
Moddiy yordam berish	42	12,2	15	9,6	57	11,4
Bepul malakasini oshirish	24	7,0	13	8,3	37	7,4
Resurslar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash	33	9,6	15	9,6	48	9,6
Yuqori unumli texnika, texnologiyalar bilan ta‘minlash	27	7,9	8	5,1	35	7
Qonun hujjatlarini o‘rgatish	9	2,6	4	2,5	13	2,6
Raqamli texnologiyalar asosida xo‘jalik yuritishni tushuntirish	16	4,7	10	6,4	26	5,2
Korxonani rivojlantiruvchi yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash	13	3,8	5	3,2	18	3,6
Mahalliy va xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etishni ta‘minlash	34	9,9	18	11,5	52	10,4
Boshqa sharoitlar bo‘lsa, yozing	8	2,3	5	3,2	13	2,6
Jami:	343	100,0	157	100,0	500	100,0

Respondentlarning fikricha, 10,6 %i turizm xizmatlarini rivojlantirish, 8,4 %i ziyorat turizmi, 7,2 %i turizm obyektlari tarixi, 8,2 %i xorijiy tillar, 7,2 %i xalqaro turizm xizmatlari, 7 %i menejment, 6,8 %i tadbirkorlik va biznes, 6,8 %i ichki turizm, 6,6 %i bozor iqtisodiyoti, 6,2 %i marketing, 5,4 %i turistlarni qabul qilish, 5,2 %i turistlarni jo‘natish, 3,4 %i xodimlarni boshqarish, 3,2 %i raqamli texnologiyalar, 3 %i buxgalteriya hisoboti va tahlili, 2,6 %i turizm korxonasi iqtisodiyoti va 2,2 %i boshqa sohalarida bilimlarini oshirib borish kerakligini ta'kidlagan.

Turizm tarmoqlarida serdaromad ish o‘rinlarini rivojlantirish uchun turistlar oqimining uzluksizligini ta‘minlash, mavsum va nomavsum vaqtlarda turistlar balansi o‘zgarib ketmasligi uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning professionallik darajasini oshirib borish lozim.

Tahlillardan ko‘rish mumkinki, 3-jadvalda respondentlar ish joyidan olayotgan daromadlaridan qoniqqan bo‘lsa-da, 11,6 %i asosiy oziq-ovqat

¹² Muallif tomonidan tayyorlangan.

mahsulotlarini sotib olish uchun, 22,4 %i oziq-ovqat va kiyim-kechaklar uchun yetarli to'lovni tanlashgan. Bu ularning daromadlari ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarga mos emasligini bildiradi.

3-jadval


Respondentlarga “Sizningcha, turizm tashkilotining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun xodimlarga qanday darajada ish haqi to‘lanishi lozim?” savoliga berilgan javoblar

Respondentlarning javobi	Erkaklar		Ayollar		Jami:	
	kishi	%	kishi	%	kishi	%
Asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun yetarli bo‘lsa	34	9,9	24	15,3	58	11,6
Oziq-ovqat va kiyim-kechaklar uchun yetarli bo‘lsa	81	23,6	31	19,7	112	22,4
To‘y va turli marosimlar o‘tkazishga yetarli bo‘lsa	60	17,5	33	21,0	93	18,6
Uy-joy sotib olish va ta‘mirlashga yetarli bo‘lsa	83	24,2	33	21,0	116	23,2
Jamg‘arish imkoniyati bo‘lsa	69	20,1	24	15,3	93	18,6
Boshqa bir daraja bo‘lsa, yozing	16	4,7	12	7,6	28	5,6
Jami:	343	100,0	157	100,0	500	100,0

Sotsiologik so‘rovnomada respondentlar iqtisodiy samaradorligini oshirishda 12,8 %i ekoturizmni rivojlantirish, 11 %i ziyorat turizmini rivojlantirish, 10,8 %i xodimlar malakasini oshirib borish, 10,4 %i ichki turizmni rivojlantirish, 10,2 %i xizmatlar hajmini kengaytirish, 9,8 %i xalqaro rivojlangan turizm tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, 9,6 %i yoshlarbop turizm xizmatlarini rivojlantirish, 9 %i moddiy-texnik bazani doimiy ravishda yangilab borish, 7,6 %i xizmatlar sifatini oshirish, 6,2 %i zamonaviy jihozlar bilan jihozlab borish va 2,6 %i sohaga oid boshqa islohotlarni amalga oshirish kerakligini ta’kidlagan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari”** nomli uchinchi bobida hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda klaster tizimidan unumli foydalanish, hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo‘llanishi va hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish strategik konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Hududiy turizmni rivojlantirishda klasterlar mintaqaviy va milliy rivojlanish strategiyalarida keng qo‘llanilishiga qaramay, iqtisodiyotni rivojlantirishda mazkur tizimning mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olinmayapti.




6-rasm. Turizm klasteri tarkibiga kiruvchi asosiy faoliyatlar¹³

Klaster deganda, ma'lum yo'nalishga ixtisoslashgan o'zaro bog'liq kompaniyalarning geografik jamlangan guruhlari tushuniladi. Hududiy turizm klasterini rivojlantirishda samarali boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish, shuningdek, tadbirkorlik, biznes va hukumat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda kichik biznes, asosan, qisqa muddatli manfaatlarga erishishga qaratilgan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olmaydi va rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik madaniyati darajasidan sezilarli ravishda ortda qolmoqda. Bunday sharoitda kurort-sayyohlik majmuasini

¹³ Muallif tomonidan tayyorlangan.

boshqarishning samarali yechimlarini ishlab chiqish uchun eng oqilona yondashuv biznes va davlat o'rtasida sanoatni rivojlantirish uchun javobgarlikni taqsimlash bilan birga tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishdir.



7-rasm. Hududiy turizmni strategik rivojlantirish konsepsiyasining asosiy mexanizmlari¹⁴

Hududiy turizm kompleksini rivojlantirishni strategik tartibga solish modelining navbatdagi bosqichi mintaqada turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqqan holda, dissertatsiyada Samarqand viloyatida hududiy turizm rivojlanish ko'rsatkichlarining (2012-2024-y.y.) ekonometrik tahlili amalga oshirilgan va 2030-yilgacha prognoz qilingan.

Ekonometrik modellashtirish metodologiyasi asosida ko'p omilli ekonometrik tahlil o'tkazish uchun quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omil – hududiy turizm xizmatlari eksporti, ming, doll. (Y), ta'sir etuvchi omillar esa tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, ming kishi (X_1), ichki turistlar soni, ming kishi, % (X_2), mehmonxonalar soni, birlik (X_3), xostellar soni, birlik (X_4), tibbiyot va sog'lomlashtirish turizm vositalari, birlik (X_5), turizm infratuzilmasi obyektlari, birlik (X_6) va turistlarga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar soni, birlik (X_7) (Ko'p omilli ekonometrik modelga

¹⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan.

kiritilayotgan omillarning o‘lchov birliklari turlicha bo‘lganligi sababli bu omillarning logarifmlangan qiymatlari olingan).

Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksportiga (lnY) ta’sir etuvchi omillar va ular asosida ekonometrik modellar tuzishda “Eng kichik kvadratlar usuli”dan foydalanilgan. Bu usul asosida ekonometrik tadqiqotlar o‘tkazish uchun omillar bo‘yicha tavsifiy statistika amalga oshirilgan. Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ma’lumotlari asosida tanlangan omillar bo‘yicha o‘tkazilgan tavsifiy statistika natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ma’lumotlari bo‘yicha tavsifiy statistika natijalari¹⁵

	LN _Y	LN _{X₁}	LN _{X₂}	LN _{X₃}	LN _{X₄}	LN _{X₅}	LN _{X₆}	LN _{X₇}
Mean	3.562195	5.188716	6.529335	4.162442	1.819642	1.711180	3.520992	5.494512
Median	3.745739	4.881166	6.937875	4.134878	1.098612	2.350240	4.621888	5.439401
Maximum	5.321057	7.061849	7.760382	4.418841	3.891820	2.639057	5.283204	5.968708
Minimum	1.029619	3.916015	2.639057	3.828641	0.693147	0.000000	0.000000	4.941642
Std. Dev.	1.201594	1.037385	1.428179	0.178666	1.195626	1.040565	2.100967	0.373368
Skewness	-0.438825	0.545723	-1.800571	-0.116874	0.627319	-0.737576	-0.907956	0.033992
Kurtosis	2.591984	1.969499	5.247407	2.022645	1.727126	1.860758	2.095136	1.395185
Jarque-Bera	6.624499	4.502124	12.01271	5.673240	4.129549	3.315962	3.744211	4.720036
Probability	0.001574	0.004065	0.002463	0.002180	0.004748	0.014120	0.009357	0.003831
Sum	56.99511	83.01946	104.4694	66.59906	29.11427	27.37888	56.33587	87.91220
Sum Sq. Dev.	21.65743	16.14250	30.59542	0.478823	21.44284	16.24165	66.21092	2.091052
Observations	16	16	16	16	16	16	16	16

Jadval ma’lumotlaridan kuzatuv olib borilayotgan tanlamadagi har bir o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymatlari (*mean*), medianasi (*median*), maksimal va minimal qiymatlarini (*maximum*, *minimum*) ko‘rish mumkin. Masalan, natijaviy omilning (hududiy turizm xizmatlari eksporti, lnY) o‘rtacha qiymati 3,5622, mediana qiymati 3,7457, maksimal qiymati 5,3211, minimal qiymati esa 1,0296 ga teng.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti qatori (lnY) bo‘yicha statsionarlikni aniqlash bo‘yicha hisoblangan Diki-Fuller testida ham ehtimollik (prob.=0,0295) 5 foizdan kichik ekan. Bu esa o‘z navbatida, natijaviy omil qatori statsionar ekanligini ko‘rsatadi. Demak, omillar o‘rtasida multikollinearlik hamda natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini hisobga olgan holda Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti (lnY) va unga ta’sir etuvchi omillar (lnX_i) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model tuzish mumkin. Mazkur ko‘p omilli ekonometrik model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln y = \ln a_0 + a_1 \ln x_1 + a_2 \ln x_2 + \dots + a_n \ln x_n + \varepsilon \quad (1)$$

Bu yerda lny – natijaviy omil, ln x_i – ta’sir etuvchi omillar, ε – tasodifiy xato.

¹⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma'lum $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$ parametrlar qiymatlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli"dan foydalanilgan. Natijalar quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model parametrlari¹⁶

Derendent Variable: LNY

Method: Least Squares

Date: 12/01/24 Time: 01:41

Samrle: 2016S1 2023S2

Included observations: 16

Variable	Coeffitsient	Std. Epror	t-Statistits	Prob.
LNX ₁	0,125065	0,036569	3,419973	0,0021***
LNX ₂	0,652282	0,066754	9,771429	0,0000***
LNX ₃	1,122668	0,409185	2,743669	0,0047***
LNX ₄	0,210687	0,091401	2,305109	0,0515**
LNX ₅	0,203595	0,094425	2,156156	0,0767**
LNX ₆	0,188202	0,058037	3,242793	0,0037***
LNX ₇	0,401871	0,196408	2,046103	0,0888**
C	4,508301	4,172088	1,080586	0,3114
R-squared	0.993833	Mean derendent var		3.562195
Adjusted R-squared	0.988437	S.D. derendent var		1.201594
S.E. of regression	0.129208	Akaike info sriterion		-0.947933
Sum squared resid	0.133558	Schwarz sriterion		-0.561639
Loglikelihood	15.58347	Hannan-Quinn sriter.		-0.928152
F-statistits	184.1804	Durbin-Watson stat		2.280919
Prob (F-statistits)	0.000000			

Izoh: *** - 0.05 foiz aniqlikda, ** - 0.1 foiz aniqlikda

Hisoblangan 5-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) bo'yicha hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modelni analitik ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\ln \hat{Y} = \ln(4,51) + 0,125 \ln X_1 + 0,652 \ln X_2 + 1,123 \ln X_3 + 0,211 \ln X_4 + 0,203 \ln X_5 + 0,188 \ln X_6 + 0,402 \ln X_7 \quad (2)$$

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model(2)ga ko'ra, tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni ($\ln X_1$) o'rtacha 1 foizga ortsa, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) o'rtacha 0,125 foizga ortar ekan. Ichki turistlar soni ($\ln X_2$) o'rtacha 1 foizga ortsa, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) o'rtacha 0,652 foizga ortar ekan. Mehmonxonalar soni ($\ln X_3$) o'rtacha 1 foizga ortsa, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) o'rtacha 1,123 foizga ortar ekan. Xostellar soni ($\ln X_4$) o'rtacha 1 foizga ortsa, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) o'rtacha 0,211 foizga ortar ekan.

Tibbiyot va sog'lomlashtirish turizm vositalari ($\ln X_5$) o'rtacha 1 foizga ortsa, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) o'rtacha 0,203 foizga ortar ekan. Turizm infratuzilmasi obyektlari ($\ln X_6$) o'rtacha 1 foizga ortsa, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) o'rtacha 0,188 foizga ortar ekan. Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi subyekt va obyektlar soni ($\ln X_7$) o'rtacha 1 foizga

¹⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan.

ortsa, Samarqand viloyatida hududiy turizm xizmatlari eksporti ($\ln Y$) o'rtacha 0,402 foizga ortar ekan.

